

MAKTAB AMALIYOTCHI-PSIXOLOGLARI FAOLIYATINI RIVOJLANTIRISHNING IJTIMOY PSIXOLOGIK ASOSLARI.*Payzieva M.N**Andijon davlat universiteti**Umumiy psixologiya kafedrasi katta o'quvchisi.*

Annotatsiya: Bu makolada maktabchi yuklash usullari haqida psixologiya yordamiga innovatsion yondoshuv usullarini qo'llab-quvvatlashning ijtimoiy-psixologik asoslari haqida fikr-mulohazalarni yaratish.

Kalit so'zlar: psixologiya, ijtimoiy, innovatsiya, yukchi, interfaol usul, psixologiya, faollashtiruvchi shakl.

METHODS FOR IMPROVEMENT OF ACTIVITIES-PSYCHOLOGISTS THROUGH INTERACTIVE METHODS*Payzieva M.N**Andijan State University**Department of General Psychology**Senior teacher.*

Annotation: This article provides a solid and scientific account of the ways in which innovative school approaches to the practice of psychologists in school and how modern practices can be developed.

Keywords: psychology, innovation, practical psychologist, interactive method, activity, activation form.

Uzluksiz ta'lim tizimini malakali pedagog kadrlar bilan ta'minlashning ijtimoiy, umummilliy ahamiyatini baholar ekan, O'zbekiston Respublikasining birinchi Prezidenti I.A.Karimov quyidagilarni alohida ta'kidlaydi: "... Tarbiyachilarning o'ziga zamonaviy bilim berish, ularning ma'lumotini, faoliyatini rivojlantirish kabi paysalga solib bo'lmaydigan dolzarb masalaga duch kelmoqdamiz. Mening fikrimcha, ta'lim-tarbiya tizimini o'zgartirishdagi asosiy muammo ham mana shu yerda. O'qituvchi bolalarimizga zamonaviy bilim bersin, deb talab qilamiz. Ammo zamonaviy bilim berish uchun, avvalo murabbiyning o'zi ana shunday bilimga ega bo'lishi kerak"

Har bir sohada tashkil etilayotgan faoliyat samaradorligi va muvaffaqiyati mutaxassisning kasbiy tayyorgarligi, malakaga egalik darajasi, zimmasidagi vazifalarni bajarishga nisbatan ijodiy yondashishi hamda o'z ustida qunt va izchillik

bilan ishlashi asosida ta'minlanadi. Shaxsiy fazilatlarni boyitish, o'z ustida ishlash, faoliyatga ijodiy yondashish ehtiyojiga ega bo'lmagan mutaxassis, shu jumladan, pedagog yoki amaliyotchi-psixolog ham muayyan yutuqlarga erisha olmaydi. Doimiy ravishda o'z ustida ishlovchi, ijodkor o'qituvchi yoki amaliyotchi-psixolog jamiyat tomonidan yosh avlod ta'lim-tarbiyasiga qo'yilgan ijtimoiy buyurtmaning muvaffaqiyatli bajarilishini ta'minlovchi asosiy ijrochilar hisoblanadi.

Muayyan faoliyatni doimiy ravishda tashkil etish shaxsda ma'lum ko'nikmalarni hosil qiladi. Ko'nikmalar esa faoliyatni izchil davom ettirish jarayonida malakalarga aylanadi. Shakllangan malaka esa shaxs tomonidan faoliyatning tezkor, sifatli, samarali kechishini ta'minlaydi. Faoliyatda samaradorlikka erishish insoniyatni qay darajada qiziqtirib kelgan bo'lsa, uni tashkil etayotgan shaxsning kasbiy malakaga ega bo'lishi ham shunday dolzarblik kasb etgan. Kasbiy malakaga ega bo'lish ijtimoiy, shu bilan birga shaxsiy ahamiyatga egadir. "Malaka, avvalo, maxsus bilim, so'ngra uzoq vaqt qayta-qayta takrorlanadigan mashqlar tufayli egallanadigan tajriba va ko'nikmalarning ongli ravishda aql-idrok hamda tafakkur chig'irig'idan o'tkazilgan holda mujassamlashuvi hisoblanadi"

Kasbiy malakaga ega bo'lmagan psixolog-pedagoglar yosh avlodga sifatli ta'lim berish, ularda yuksak ma'naviy-axloqiy sifatlarni shakllantirish imkoniyatiga ega bo'lmaydilar. O'qituvchilar, shu jumladan, amaliyotchi-psixologlarning zamonaviy bilimlar bilan qurollantirish, mavjud ko'nikma hamda malakalarini takomillashtirish, shuningdek, ma'naviy-axloqiy sifatlarni boyitish sifatida tushunish maqsadga muvofiqdir. Binobarin, ijtimoiy, iqtisodiy va madaniy sohalarda ro'y berayotgan tezkor o'zgarishlar mavjud bilimlarni doimiy ravishda boyitib borish, ko'nikma va malakalarni takomillashtirishni taqozo etadi. Shu sababli har bir mutaxassis o'z ustida ishlashi, bilim va malakalarini uzluksiz oshirib borishi lozim. Ushbu jarayonning samarali kechishida kadrlar faoliyatini rivojlantirish va ularni qayta tayyorlash muassasalari muhim o'rin tutadi.

Davr amaliyotchi-psixologdan yuqori malakali bo'lishni taqozo etmoqdaki Amaliyotchi-psixologlar umumiy o'rta ta'lim muassasalarida sog'lom psixologik muhitni hosil qilish, uning barqarorligini ta'minlash, o'quvchilarning o'quv fanlari bo'yicha o'zlashtirish ko'rsatkichlarini yaxshilash, pedagogik faoliyat sub'ektlari o'rtasidagi munosabatlarning ijobiy mazmunga ega bo'lishini ta'minlash, iqtidorli yoshlarni aniqlash hamda komil insonni shakllantirish kabi vazifalarning ijobiy yechimini topishda pedagogik jamoaga zarur metodik yordam ko'rsata olishlari uchun ularning kasbiy malakalarini rivojlantirish muhimdir.

Amaliyotchi-psixologlar faoliyatini bevosita kuzatish, ular bilan suhbat hamda savol-javoblarni tashkil etish, o'quvchilar tomonidan o'quv fanlarini o'zlashtirishning sifat ko'rsatkichlarini tahlil qilish, umumiy o'rta ta'lim maktablari jamoalaridagi psixologik muhit mohiyatini o'rganish ayni vaqtda ham mas'ul shaxslarning

psixologik xizmat mazmunini to‘la tasavvur qila olmasliklari sababli muayyan qiyinchiliklarga duch kelayotganliklarini ko‘rsatdi. Amaliyotchi-psixologlarning psixologik xizmat mohiyatini to‘la anglashlari va bu yo‘lda samarali faoliyat yurita olishlarida qayta tayyorlovdan o‘tishlari va malaka rivojlantirishlari muhim ahamiyatga ega. Biroq malaka rivojlantirish jarayonini yuqori darajada sifatli tashkil etish uchun dastlab o‘quv dasturlari mazmunini takomillashtirish, pedagogik texnologiya g‘oyalari bilan boyitish, mashg‘ulotlarni tashkil etishda axborot texnologiyalari imkoniyatlaridan samarali foydalanish, ma‘ruzachi sifatida faoliyatga innovatsion yondasha olish layoqatiga ega pedagog va psixologlarning tanlanishiga erishish, ularni zamonaviy talablarga javob bera oladigan metodik adabiyotlar bilan qurollantirish kabi vazifalarni hal etish taqozo etilmoqda. Shuni alohida ta‘kidlash joizki, malaka rivojlantirish tizimida ilg‘or pedagogik texnologiyalar imkoniyatlaridan samarali foydalanish amaliyotchi-psixologlarda amaliyotni ijodiy tashkil eta olish ko‘nikma va malakalarini shakllantiribgina qolmay, shu bilan birga faoliyatda yuqori samaradorlikka erishishni ham kafolatlaydi. Shu jihatdan olib qaraganda, malaka rivojlantirish kurslarida amaliyotchi-psixologlarning kasbiy malakalarini ilg‘or pedagogik texnologiyalar g‘oyalari bilan boyitilgan ta‘lim asosida rivojlantirish dolzarb psixologo- pedagogik muammo hisoblanadi.

Yosh avlodni har tomonlama barkamol bo‘lib voyaga yetishishlari va ijtimoiy qiyinchiliklarni mustaqil yenga olishlarida maktab amaliyotchi-psixologlarining o‘rni va roli beqiyosdir. Shu bois amaliyotchi-psixologlarning maktab ta‘limini rivojlantirish va pedagogik jamoa (o‘quvchilar hamda o‘qituvchilar, shuningdek, ota-onalar)ga psixologik xizmat ko‘rsatish darajasini o‘rganish, bu borada samaradorlikka erishish imkoniyatini beruvchi pedagogik shart-sharoitlarni tadqiq etish va ularning kasbiy malakalarini rivojlantirish imkoniyatini baholash maqsadga muvofiqdir. Bugungi kunda maktab psixologik xizmatini samarali tashkil etish, amaliyotchi-psixologlarda kasbiy faoliyatni metodik jihatdan to‘g‘ri yo‘lga qo‘yishga yangicha yondashuvni qaror toptirish malaka rivojlantirish tizimi oldidagi dolzarb muammolardan sanaladi.

Amaliyotchi-psixologlar faoliyatini rivojlantirish tizimi quyidagi tarkibiy qismlarni o‘z ichiga oladi:

- 1. Oliy ta‘lim muassasalari yoki qayta tayyorlash kurslarida tayanch ma‘lumotga ega bo‘lish.**
- 2. Mustaqil ta‘lim olish.**
- 3. Metodik birlashmalar faoliyati, turli miqyosda tashkil etiluvchi ilmiy anjumanlar hamda doimiy harakatdagi seminarlar yordamida malaka rivojlantirish.**
- 4. Malaka rivojlantirish kurslarida ta‘lim olish.**

Amaliyotchi-psixolog bajaradigan xizmatlar doirasi keng, metodikasi ham o‘ziga xos. Shunga ko‘ra ham mutaxassisning o‘z ustida tinmay ishlashi, metodik adabiyotlarni mutolaa qilib borishi, bunda Internetdan olinadigan ma’lumotlardan ham foydalanishi, o‘z kasbdoshlari bilan tajriba almashishi muhim ahamiyat kasb etadi.

Mavjud tadqiqotlarda qayd etilgan fikrlarga tayangan holda aytish mumkinki, maktab amaliyotchi-psixologlari faoliyatini rivojlantirishda ilg‘or pedagogik texnologiyalardan foydalanishda quyidagilarga e’tibor berish maqsadga muvofiqdir:

- malaka rivojlantirish davomida ta’lim jarayonini zamonaviy pedagogik (individual ta’lim, muammoli ta’lim, hamkorlik ta’limi, modulli ta’lim, loyihalash, didaktik o‘yinlar va boshqalar) va axborot texnologiyalariga asoslangan holda tashkil etish;
- tinglovchilarning mustaqil va ijodiy ishlarini samarali tashkil etish;
- amaliyotchi-psixologlarning faoliyatini bosqichma-bosqich (malaka rivojlantirishgacha, malaka rivojlantirish davomida, istiqbolda) oshirilishini nazorat qilish;
- tinglovchilarning maqsadli ijodiy izlanishlarini tashkil etish.

Nazariy tahlil va amaliyotni o‘rganish asosida ilg‘or pedagogik texnologiyalar asosida amaliyotchi-psixologlar faoliyatini rivojlantirish jarayonining andozasini quyidagicha ifodalash mumkin

Shunday qilib, ilg‘or pedagogik texnologiyalar asosida maktab amaliyotchi-psixologlarining faoliyatini rivojlantirish ularda psixologik xizmatni samarali tashkil etish ko‘nikma va malakalariga ega bo‘lishlariga imkon beradi. Maktab amaliyotchi-psixologlari faoliyatini rivojlantirishning mavjud holatini o‘rganish maxsus, maqsadli kurslarda pedagogik faoliyatni nazariy va metodik jihatdan to‘g‘ri tashkillashtirilishini ta’minlaydi.

Amaliyotchi-psixologlarining malaka rivojlantirishda quyidagi faollashtirish shakl va metodlaridan foydalaniladi.

-“Faollashtirish shakllari: dialogik ma’ruza, seminar, laboratoriya-amaliy mashg‘ulotlari, ishchanlik o‘yinlari, ko‘chma mashg‘ulotlar, stajirovka, suhbat, maslahat, ilmiy-amaliy konferensiyalar, uchrashuvlar, yozma ishlar.

-Faollashtirish metodlari: suhbat, mashq, rolli o‘yin, adabiyotlar bilan mustaqil ishlash, ijodiy munozaralar, muammoli, dasturli ta’lim elementlaridan foydalanish, tajriba almashish

Amaliyotchi-psixologlarda malaka rivojlantirishga ehtiyoj, intilish paydo etish uchun ularda o‘z-o‘ziga baho berish va o‘z-o‘zini rivojlantirish muhim rol o‘ynaydi. Maktab amaliyotchi-psixologlari faoliyatini rivojlantirish kurslarida muammoli ta’lim, dasturiy ta’lim, modul ta’limi, rivojlantiruvchi ta’lim, o‘yin texnologiyalari va interfaol ta’lim kabi texnologiyalaridan foydalanish maqsadga muvofik.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Karimov.I.A. “Barkamol avlod orzusi”. –T., 2000.
2. Davaetshin M.G., To‘ychieva S.M. Umumiy psixologiya, Toshkent 2002.
3. Davaetshin M.G. Zamonaviy maktab -O‘qituvchisi psixologiyasi. -Toshkent 1998.6.
4. Psixologiya. qisqacha izog‘li lug‘at .Toshkent, 1998.
5. Yosh va pedagogik psixologiyadan praktikum. T.1991.
6. Karimova. V. M. Psixologiya Toshkent.2002y.
7. Бандура А., Уольтерс. Р. Подростковая агрессия. М.: Апрель Пресс. 2000, 512 с.
8. Газиев Э. Г., Тулагонова Г. К. Методические указания по «Возрастной и педогогической психологии» к разделу «Психология подросткового возраста». (для непсихологических факультетов). Ташкент. ТаГГУ, 1990, 25 с.